



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QURILISH VA UY-JOY KOMMUNAL XO'JALIGI
VAZIRLIGI HUZURIDAGI QURILISH VA UY-JOY KOMMUNAL XO'JALIGI SOHASIDA
NAZORAT QILISH INSPEKSIYASI**

BUYRUQ

7 fevral 2024 yil.

17/-son

**Yangi qurilgan ko'p kvartirali uylarni boshqaruv organiga aniqlik kiritish
va "Mening uyim" billing axborot tizmiga kiritilgandan so'ng foydalanishga
qabul qilish to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 15-avgustdag'i "Ko'p kvartirali uylarni boshqarishni yanada samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-278-sonli qarori va Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirining 2023-yil 1-noyabrdagi 353-sonli buyrug'inining 3-bandi ijrosini ta'minlash maqsadida

B U Y U R A M A N:

1. Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirining 2023-yil 1-noyabrdagi 353-sonli buyrug'i ma'lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi sohasida nazorat qilish inspeksiyasi (keyingi o'rinnarda - Inspeksiya)ning Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar hududiy nazorat qilish inspeksiyalari boshliqlari 2024-yilning 1-yanvar kunidan boshlab:

quruvchi tashkilotlar tomonidan qurilishi tugallangan, boshqarish uchun boshqaruvchi tashkilot jalg' etilgan va "Mening uyim" billing axborot tizimiga kiritilgan ko'p kvartirali uylar foydalanishga qabul qilinishi va qabul qilingan uylar to'g'risida belgilangan tartibda Inspeksiya markaziy apparatiga ma'lumot kiritib borilishini ta'minlasin;

quruvchi tashkilotlar tomonidan qurilishi tugallangan, boshqarish uchun boshqaruvchi tashkilot jalg' etilmagan va "Mening uyim" axborot billing tizimiga kiritilmagan ko'p kvartirali uylar foydalanishga qabul qilingan taqdirda, ularga nisbatan, ular bilan tuzilgan mehnat shartnomalarini bekor qilishgacha bo'lgan intizomiy choralar ko'riliishi to'g'risida qattiq ogohlantirilsin.

3. Qurilish-montaj ishlarini nazoratini muvofiqlashtirish boshqarmasi (A.Muminov), Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar hududiy nazorat qilish inspeksiyalari boshliqlari quruvchi tashkilot qurilishi tugallangan ko'p kvartirali uyni boshqaruv organiga aniqlik kiritilgandan so'ng foydalanishga qabul qilish ishlari amalga oshirilishini ta'minlasin.

4. Qurilishi tugallangan va boshqaruv organi aniqlagan ko‘p kvartirali uylarni topshirish va qabul qilish dalolatnomasiga asosan “Mening uyim” axborot billing tizimiga kiritish hamda monitoring qilib borish vazifasi Inspeksiya markaziy apparatining Ko‘p kvartirali uy-joy fondini boshqarish va kommunal xizmatlar ko‘rsatilishini nazorat qilishni muvofiqlashtirish bo‘limi boshlig‘i A.Pardayev va yetakchi mutaxassis M.Mamatovlarga yuklatilsin.

5. Devonxona mudiri (J.Ataxanov) mazkur buyruqni bir kunlik muddatda buyruq kirituvchining tarqatish ko‘rsatkichi asosida “edo.ijro.uz” elektron tizimi orqali foydalanuvchilarga yetkazsin.

6. Mazkur buyruq ijrosi ustidan nazoratni Inspeksiya boshlig‘i o‘rinbosari A.Sadikov zimmasiga yuklatilsin.

Inspeksiya boshlig‘i



K.Tulyaganov